

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ELMURODOV NURIDDIN SAYITMURODOVICH

**SUZISH BASSEYNLARIDA SUVNI GELIOTERMIK QIZDIRISH
TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

UDK: 662.997.715.1

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) of technical
sciences**

Elmurodov Nuriddin Sayitmurodovich

Suzish basseynlarida suvni geliotermik qizdirish tizimini ishlab chiqish.....3

Элмуродов Нуриддин Сайитмуродович

Разработка гелиотермической системы подогрева воды в плавательных
бассейнах.....25

Elmurodov Nuriddin Sayitmurodovich

Development of a solar thermal system for heating water in swimming pools...49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ELMURODOV NURIDDIN SAYITMURODOVICH

**SUZISH BASSEYNLARIDA SUVNI GELIOTERMİK QIZDIRISH
TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4701 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uzoqov G'ulom Norboyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axatov Jasurjon Sayidovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Toyirov Zuvur
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi PhC:03/30.09.2020.T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 23 - 08 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti konferensiyalar zali. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~№147~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95 e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 07 - 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil 07 - 08 dagi № 32 raqamli registr beryomonasi).



B. Urishev

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.v.b. texnika fanlari doktori, professor

X.A. Davlonov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

B.E. Nayriddinov

ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda binolarni issiqlik bilan ta'minlashda tabiiy energiya resurslarini tejashga hamda zamonaviy texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalariga o'tish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha energiya iste'molining 30 – 40 foiz qismi binolarning energiya iste'moli uchun sarf bo'ladi¹. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida issiqlik nasoslari binolarni isitishning asosiy texnik vositalariga aylanmoqda. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030 yilga qadar Yevropa ittifoqi mamlakatlarida issiqlik nasosining issiqlik ta'minoti tizimida qo'llanilish ulushi 32 foizdan 79 foizgacha ko'tarilishi rejalashtirilgan. Yerdagi va quyosh hovuzidagi past haroratli issiqlikda ishlaydigan issiqlik nasoslarining issiqlik quvvati hozirda 15 GVt dan oshdi². Bu yo'nalishda issiqlik nasoslari uchun yil davomida past darajadagi issiqlikning ishonchli manbasini, xususan, quyosh hovuzlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga katta etibor qaratilmoqda.

Jahonda past haroratli issiqlik manbasida ishlaydigan bug' kompressorli issiqlik nasoslaridan binolarning issiqlik ta'minotida foydalanish, xususan, suzish basseynlari binolarining energiya samaradorligini oshirishda quyosh energiyasi akkumulyatsiyasi asosidagi kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, quyosh hovuzining energiya yig'ish va unga o'rnatilgan issiqlik almashinish qurilmasi orqali issiqlik almashinuv jarayonlarini tadqiqot qilish, kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli isitish tizimlarining issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirish, harorat rejimlarini tadqiqot qilish, suzish basseynlarining suvini isitish uchun foydalanilayotgan issiqlik nasosli qurilmalarning ish samaradorligini oshirishda quyosh hovuzlari va unga o'rnatilgan quyosh reflektorlaridan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ustuvor hisoblanadi. Shu qatorda quyosh energiyasini quyosh hovuzi qurilmalarida maksimal akkumulyatsiyalash va kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli isitish tizimini ishlab chiqish hamda ularning issiqlik-texnik parametrlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda issiqlik nasoslari va quyosh qurilmalari asosidagi "yashil texnologiya"larni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarorida "... O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda

¹Energy consumption of buildings| https://climateactionaccelerator.org/solution-areas/energy_consumption_of_buildings

² <https://econet.ru/articles/148891-teplovye-nasosy-statistika-ispolzovaniya-v-evrope-i-mire>

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish...³ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda quyosh energiyasi asosidagi kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimini ishlab chiqish va suzish basseynlari isitish tizimlariga joriy etish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda shu soha doirasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV "Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg'or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Quyosh energiyasini akkumulyatsiyalash hamda issiqlikka aylantirishning innovatsion texnologiyalari va undan suzish basseynlarini qizdirishda foydalanishga dunyoning bir qator ilmiy markazlarida, jumladan, AQSH, Ispaniya, Germaniya, Hindiston, Avstraliya, Gretsiya va boshqa davlatlarida katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda suzish basseynlari binolarini issiqlik bilan ta'minlash tizimlarida kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimlarini qo'llash, ushbu tizimning energiya samaradorligini oshirish va samarali quyosh qurilmalarini yaratish hamda energiya va resurs tejamkor issiqlik rejimlarini tadqiq etish borasida G.N. Tiwari (Hindiston), A.H. Tarrad (Iroq), S.B. Sharma (Hindiston), M.M. Shah (Pokiston), R. Mahmoudi (Iron), J.C. Lam (Xitoy), W.W. Chan (Xitoy), V.A. Butuzov (Rossiya), K.M. Bataineh (Iordaniya), G.B. Osadchiy (Rassiya), J.T. Czarnecki (AQSH) va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'zbekistonda binolarni issiqlik bilan ta'minlashda quyosh energiyasidan samarali foydalanish hamda energiya tejamkor, quyosh qurilmalarini yaratish va takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar R.A.Zaxidov, R.R.Avezov, A.B. Vardiyashvili, Sh.I. Klichev, A. Abduraxmonov, N.R. Avezova, B.E. Xayriddinov, G.N.Uzoqov, A.I.Anarbayev va boshqalar tomonidan bajarilgan. Lekin, yopiq

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-436-sonli Qarori

suzish basseynlarining suvini qizdirish tizimida quyosh hovuzi va issiqlik nasosli qurilmalarni ishlab chiqish borasida tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu sababli kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimlaridan suzish basseynlarini isitishda foydalanish, hamda basseynning issiqlik va energetik samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-4821091659-“Hudud iqlimining meteorologik xususiyatlarini hisobga olgan holda gibrid issiqlik ta'minoti tizimlarining ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha (2023-2024 y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyosh hovuzi va issiqlik nasosli qurilmalar asosida suzish basseynlarining suvini qizdirish tizimini ishlab chiqish va issiqlik-energetik parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

suzish basseynlari suvini isitish uchun kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimi sxemasini ishlab chiqish;

quyosh hovuzi qurilmasining issiqlik balansini modellashtirish va hisoblash;

kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimli suzish basseynlarining harorat rejimi va issiqlik balansini tadqiq qilish;

kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimining issiqlik-texnik parametrlarini asoslash;

kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmaning energetik va texnik-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida suzish basseynlarining kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti quyosh energiyasidan issiqlik olish uchun quyosh hovuzi qurilmasi, bug' kompressorli issiqlik nasosi, suzish basseynlarining energiya balansi va issiqlik almashinuv jarayonlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida quyosh nurlanish energiyasini akkumulyatsiyalash va issiqlikka aylantirish jarayonlarini tajribaviy tadqiqot qilish, issiqlik texnikasining nazariy asoslari, matematik modellashtirish, eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba suzish basseynlari suvini isitish uchun quyosh hovuzi va issiqlik nasosini kombinatsiyalashtirish asosida quyosh nurlanish energiyasi, quyosh hovuzi va issiqlik nasosi kondensatorining issiqlik tashlamalaridan bir vaqtda foydalanish imkonini beradigan suzish basseynining suvini geliotermik qizdirish tizimi ishlab chiqilgan (FAP №2504);

suv sirtiga tushadigan quyosh nurlanish energiyasini akkumulyatsiyalovchi va issiqlik energiyasiga aylantiruvchi hamda yassi quyosh reflektorlari bilan takomillashtirilgan past potentsialli quyosh hovuzi qurilmasi ishlab chiqilgan;

quyosh hovuzi harorat rejimining quyosh radiatsiyasi, atrof-muhit harorati, eritma konsentratsiyasi va hovuzning konstruksiyasi hamda geometrik o'lchamlariga bog'liqligini hisoblash imkonini beradigan quyosh hovuzi issiqlik balansi tenglamalari asosida matematik modeli ishlab chiqilgan;

suzish basseyni suvini isitish uchun zarur energiya iste'moli va issiqlik yo'qotishlarini hisobga olib qizdirish tizimining energiya balansi tenglamalari asosida basseyn suvining kombinatsiyalashgan qizdirish tizimidan chiquvchi haroratining suv sarfi o'zgarishiga bog'liqligini aniqlash imkonini beradigan empirik bog'liqliklar olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quyosh nurlanish energiyasi, issiqlik almashinish qurilmasi va ma'lum konentratsiyadagi eritma asosida issiqlik energiyasi olish geliotexnologiyasi ishlab chiqilgan.

kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmalar asosida suzish basseynlarining ehtiyoji uchun zarur haroratdagi suv bilan ta'minlash tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik modellashtirish hamda tajribaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi, issiqlik-texnik tajribalarni o'tkazish va tajriba natijalariga ishlov berishda umum e'tirof etilgan usullari qo'llanilganligi hamda nazariy va tajriba natijalarining o'zaro mos kelishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati suzish basseynlari suvini isitishda quyosh hovuzi energiyasi va issiqlik nasosidan foydalanish, quyosh hovuzining issiqlik rejimlari, suzish basseynining issiqlik yo'qotishlari, basseynning solishtirma energiya sarfini kamaytiruvchi omillarni hisobga olgan holda basseyn suvini energiya tejamkor isitish rejimlari va ularni hisoblash imkonini beradigan issiqlik balansining matematik modeli, issiqlik balansi tenglamalari hamda issiqlik-texnik parametrlarini hisoblash dasturi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyosh hovuzi va issiqlik nasosi qurilmasidan foydalanib suzish basseyni suvini isitishning energiya tejamkor kombinatsiyalashgan qizdirish tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qizdirish tizimi suzish basseynining solishtirma energiya sarfini kamaytirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suzish basseynlarida suvni geliotermik qizdirish tizimini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suzish basseyni kompleksining isitish tizimi uchun O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligidan foydali modelga patent olingan (№ FAP №2504; 2023 yil). Natijada, suzish basseyni suvini isitish uchun quyosh energiyasini quyosh hovuzi qurilmasida akkumulyatsiya qilish asosida ishlaydigan kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli isitish tizimi ishlab chiqilgan;

basseyn suvini quyosh energiyasi asosida qizdiradigan kombinatsiyalashgan quyosh hovuzli-issiqlik nasosli qizdirish tizimi Qarshi shahridagi suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabiga qarashli suzish basseyniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 18 noyabrdagi № 06/12108 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suzish basseynini quyosh hovuzi-issiqlik nasosli kombinatsiyalashgan qurilma yordamida isitish natijasida, ananviy elektr isitish tizimli suzish basseynlariga nisbatan isitish mavsumi davomida yillik 114638 kVt*soat elektr energiyasini iqtisod qilinishiga erishilgan. Ananviy tabiiy gaz qozonli isitish tizimi bilan taqqoslaganda 20347 m³ tabiiy gazni tejab qolishga va atmosferaga 37,6 tonna karbonat angidrid gazi chiqishining oldini olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dessertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 2 ta xalqaro va 6 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk markazining 1 ta foydali modeliga patent hamda 2 ta EHM dasturiy mahsulot uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Suzish basseynlarida suvni qizdirish tizimlarining zamonaviy holati tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda suzish basseynlarini isitish uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanishning zamonaviy holati tahlili, basseyn suvini isitishda muqobil energiya manbalaridan foydalanish usullari, suzish basseynlari suvini isitishda energiya samaradorligi yuqori kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmani qo'llash va ularning optimal parametrlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan ishlar hamda suzish basseynlari suvini isitish qurilmalarining zamonaviy konstruksiyalari tahlili keltirilgan.


Olib borilgan tajribaviy va ilmiy tadqiqotlarning asosi shuni ko'rsatadiki, quyosh issiqlik energiyasini yig'adigan quyosh hovuzi qurilmasini ishlab chiqish

hamda uning past haroratli issiqligi asosida ishlaydigan issiqlik nasosi qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini asoslash, suzish basseynlari suvini isitishda an'anaviy energiya resurlaridan foydalanishni kamaytirish, kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmalardan foydalanib suzish basseynlarini yil davomida ekologik toza energiya bilan ta'minlash masalalari yetarlicha tadqiqot qilinmagan. Suzish basseynlari suvini isitish tizimlarida quyosh hovuzi energiyasi asosidagi issiqlik nasoslaridan foydalanib basseynning energiya samaradorligini oshirish, ushbu isitish tizimini suzish basseynlariga joriy etish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish, kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmasining iqtisodiy samaradorligini asoslash bo'yicha yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Mavjud quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmalarda o'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Quyosh hovuzi qurilmasining issiqlik rejimini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida quyosh hovuzi qurilmasida olib borilgan tajriba tadqiqot natijalari keltirilgan. Suzish basseynlarini issiqlik bilan ta'minlash hamda qizdirish tizimini takomillashtirish va yoqilg'i energiya sarfini kamaytirish maqsadida tajriba quyosh hovuzi qurilmasi ishlab chiqildi (1, 2-rasmlar).




1-rasm. Eksperimental quyosh hovuzi qurilmasi



2-rasm. Quyosh hovuzining issiqlik balansi hisob sxemasi

Quyosh energiyasini akumulatsiya qilish jarayonini tadqiqot qilish uchun Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, “Muqobil energiya manbalari” ilmiy tadqiqotlar poligonida tajriba quyosh hovuzi qurilmasi qurildi va undan issiqlik olish imkoniyatlarini baholash maqsadida issiq sho‘r suvning turli konsentratsiyalarida tajriba sinov jarayonlari o‘tkazildi (3-rasm).




3-rasm. Quyosh hovuzi qatlamlari haroratlarining vaqtga bog‘liqligi diagrammalari
(a-sho‘r suv 10% li konsentratsiyasida; b- sho‘r suv 15% li konsentratsiyasida; c- sho‘r suv 20 % li konsentratsiyasida; d- sho‘r suv 25% li konsentratsiyasida;)

Quyosh hovuzi zonalarida issiqlik yutilish va issiqlik yo‘qotilish qiymatlari 2-rasmda qisqacha tasvirlangan. Quyosh hovuzi zonalarining issiqlik balansi tenglamasini matematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\begin{cases} Q_{YKZ} = Q_{nur1} + Q_{kond1} - Q_{um} - Q_{o'tk_{y kz}} \\ Q_{O'KZ} = Q_{nur2} + Q_{kond3} - Q_{kond1} - Q_{o'tk_{o' kz}} \\ Q_{PKZ} = Q_{nur3} - Q_{kond3} - Q_{o'tk_{pkz}} - Q_{gr} \end{cases} \quad (1)$$

$$\begin{cases} \rho_s C_s V_{y kz} \frac{dt_{y kz}}{d\tau} = \alpha \tau F_{y kz} q_{nur} + \frac{\lambda \cdot F_{o' kz}}{L_{y kz}} (t_{o' kz} - t_{y kz}) - (\alpha_{kon} + \alpha_{nur}) F_{y kz} \cdot (t_{y kz} + t_a) - \frac{F_{dev_{y kz}}}{R} (t_{y kz} - t_a) \\ \rho_s C_s V_{o' kz} \frac{dt_{o' kz}}{d\tau} = \alpha \tau F_{o' kz} q_{nur} + \frac{\lambda \cdot F_{pkz}}{L_{o' kz}} (t_{pkz} - t_{o' kz}) - \frac{\lambda \cdot F_{o' kz}}{L_{y kz}} (t_{o' kz} - t_{y kz}) - \frac{F_{dev_{o' kz}}}{R} (t_{o' kz} - t_a) \\ \rho_s C_s V_{pkz} \frac{dt_{pkz}}{d\tau} = \alpha \tau F_{pkz} q_{nur} - \frac{\lambda \cdot F_{pkz}}{L_{y kz}} (t_{pkz} - t_{o' kz}) - \frac{F_{dev_{pkz}}}{R} (t_{pkz} - t_a) - \frac{F_{asos}}{R} (t_{pkz} - t_{gr}) \end{cases} \quad (2)$$


$$\begin{cases} \frac{dt_{y kz}}{d\tau} = - \left(\frac{\alpha_{kon} F_{y kz} + \alpha_{nur} F_{y kz} + \frac{F_{dev_{y kz}}}{R}}{\rho_s C_s V_{y kz}} \right) t_{y kz} + \frac{\alpha_{kon} F_{y kz} + \alpha_{nur} F_{y kz}}{\rho_s C_s V_{y kz}} t_a + \frac{\alpha \tau F_{y kz} q_{nur}}{\rho_s C_s V_{y kz}} + \frac{5,4 \lambda F_{o' kz}}{\rho_s C_s V_{y kz} L_{y kz}} \\ \frac{dt_{o' kz}}{d\tau} = - \frac{F_{dev_{o' kz}}}{R \rho_s C_s V_{o' kz}} t_{o' kz} + \frac{F_{dev_{o' kz}}}{R \rho_s C_s V_{o' kz}} t_a + \frac{\alpha \tau F_{o' kz} q_{nur}}{\rho_s C_s V_{o' kz}} + \frac{11,57 \lambda \cdot F_{pkz}}{L_{y kz} \rho_s C_s V_{o' kz}} - \frac{5,4 \lambda \cdot F_{o' kz}}{L_{y kz} \rho_s C_s V_{o' kz}} \\ \frac{dt_{pkz}}{d\tau} = - \left(\frac{F_{dev_{pkz}} + F_{asos}}{R \rho_s C_s V_{pkz}} \right) t_{pkz} + \frac{F_{dev_{pkz}}}{R \rho_s C_s V_{pkz}} t_a + \frac{F_{asos}}{R \rho_s C_s V_{pkz}} t_{gr} + \frac{\alpha \tau F_{pkz} q_{nur}}{\rho_s C_s V_{pkz}} - \frac{11,57 \lambda \cdot F_{pkz}}{L_{o' kz} \rho_s C_s V_{pkz}} \end{cases} \quad (3)$$



6-rasm. Tajribada va modellash tirish asosida hisoblangan quyosh hovuzi haroratlarining vaqtga bogliq o'zgarish grafiklari

Tajriba va hisoblash natijalari orasidagi farqni taqqoslash, har oyda olib borilgan tadqiqot natijalari uchun o'tkazildi. Taqqoslash natijalariga ko'ra tajriba va hisoblash natijalari orasidagi o'rtacha farq yuqori konvektiv zona (YKZ) uchun 10,34% ni, o'rta konvektiv bo'lmagan zona (O'KZ) uchun 10,01% ni va pastki konvektiv zona (PKZ) uchun 9,01% ni tashkil etadi.

Quyosh hovuzining issiqlik samaradorligiga turli tuzlarning ta'siri tadqiqot qilindi (7-rasm).




7-rasm. Sho'r suv zichligining quyosh hovuzi chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi (a-NaCl tuzli eritma, b- KCl tuzli eritma, c- MgCl₂ tuzli eritma)


Tajribalar davomida quyosh hovuzida 3 ta natriy xlorid (NaCl), magniy xlorid (MgCl₂) va kaliy xlorid (KCl) tuzlaridan foydalanildi va ularning fizik xususiyatlari o'rganildi. Tajriba jarayonida har bir tuzli eritmaning zichlik darajasini hamda issiqlik sig'imini aniqlash maqsadida hovuz turli chuqurliklaridan namunalar olindi. Har bir tuz uchun tajriba boshi va so'ngida quyosh hovuzi har bir qatlamlarining zichlik profillari o'rganildi. Tajriba boshida pastki issiqlik saqlash zonasidagi eritmaning zichligi natriy xloridli (NaCl) eritmada 1200 kg/m³ ni, magniy xloridli (MgCl₂) eritmada 1210 kg/m³, kaliy xloridli (KCl) eritmada

1195 kg/m³ ni tashkil etdi. Yuqori zonada har bir tuz eritmasining zichligi 1002-1004 kg/m³ atrofida o'zgarishi va tajriba so'ngida 1007 kg/m³ gacha ko'tarilishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonlari davomida adiabatik kalorimetrik usul yordamida ushbu tuzli eritmalarining turli haroratlari va konsentratsiyalarida solishtirma issiqlik sig'implari aniqlandi (8-rasm).



8-rasm. Eksperimental adiabatik kalorimetr qurilmasi



9-rasm. Turli konsentratsiyalarda NaCl, KCl va MgCl₂ tuz eritmalarining solishtirma issiqlik sig'implarining o'zgarishi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari 20°C-70°C harorat oralig'ida va sho'r suv konsentratsiyasining 5%-28% qiymatlarida o'tkazildi. 9-rasmda har bir tuzning eritmasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, harorat va sho'r suv konsentratsiyasining ortishi bilan eritmaning issiqlik sig'imi kamayib borishi aniqlandi.


Dissertatsiya ishida quyosh reflektorlarining quyosh hovuzi issiqlik samaradorligiga ta'siri tadqiqot qilindi. Qarshi shahri sharoitida tajriba quyosh hovuzida, quyosh reflektorlaridan foydalanildi. Quyosh reflektorlari tajriba quyosh hovuzining 3 ta tomoniga joylashtirilgan bo'lib, o'lchamlari 1,5m va 0,5m ga teng. Reflektorlar vertikal o'qqa nisbatan 10⁰ va 150⁰ burchak ostida harakatlanadi.

Qarshi shahri sharoitida quyosh nurlarining quyosh reflektoridan qaytishi va quyosh hovuziga tushishi o'rganildi.

$$\alpha = \phi + \psi \quad (4)$$

bu yerda α -quyosh reflektorlaridan qaytgan quyosh nurlanish burchagi (qaytgan nurlanish burchagi), ϕ - quyosh nurlanishining balandlik burchagi va ψ - quyosh reflektorining nishablik burchagi.

Reflektorlardan foydalanilgandagi tajriba natijalari reflektorsiz holatdagi tajriba natijalariga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichni ko'rsatdi va quyosh hovuzi pastki zonasining maksimal harorati 52 °C gacha ko'tarildi (10-rasm).



10-rasm. Quyosh hovuzi zonalari haroratlarining o'zgarishi (a-reflektorli; b-reflektorsiz holat uchun o'lchov natijalari)


Tadqiqot ishlari davomida quyosh hovuzi harorat o'zgarishini hamda hovuzning reflektorsiz va reflektor bilan o'tkazilgan tajriba-o'lchov natijalari asosida sentabr oyi uchun o'rtacha energiya samaradorligi tahlil qilindi.

Pastki konvektiv zona uchun energiya samaradorligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\eta_{pkz} = \frac{Q_{nur_{pkz}} - Q_{o'tk_{pkz}} - Q_{asos} - Q_{kond3}}{Q_{nur_{pkz}}} \quad (5)$$

Bu yerda $Q_{nur_{pkz}}$ -PKZ ga yutiladigan quyosh nurlanish energiyasi, $Q_{o'tk_{pkz}}$ -PKZ yon devorlari orqali energiya yo'qotilishi, Q_{asos} -hovuz asosi orqali energiya yo'qotilishi, Q_{kond3} -PKZ dan O'KZ ga issiqlik o'tkazuvchanlik orqali issiqlik berilishi.


Ishlab chiqilgan matematik model tenglamalari asosida quyosh hovuzining PKZ uchun energiya samaradorligi hisoblandi. Quyosh reflektorlaridan foydalanilganda PKZ qatlamining energiya samaradorligi soat 15-00 da maksimal 68% gacha ko'tarildi. Reflektorsiz holatda esa 61% gacha ko'tarilganligi kuzatildi (11-rasm).



11-rasm. Quyosh hovuzi qurilmasining reflektorli va reflektorsiz holdagi energiya samaradorligining sutkalik o'zgarishi

Dissertatsiyaning “**Suzish basseynlari suvini geliotermik qizdirish tizimini ishlab chiqish va tadqiqot qilish**” deb nomlangan uchunchi bobida kombinatsiyalashgan quyosh hovuzi-issiqlik nasosli qurilmasida olib borilgan tajriba va nazariy tadqiqot natijalari keltirilgan. Tajriba bug‘ kompressorli issiqlik nasosi qurilmasida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida uning transformatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Ushbu tadqiqotlarni o‘tkazishdan maqsad kombinatsiyalashgan quyosh hovuzli-issiqlik nasosli qurilmasining energiya samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ishida dastlab tajriba suzish basseyni uchun quyosh hovuzli qizdirish tizimining texnologik sxemasi ishlab chiqildi(12-rasm) hamda issiqlik texnik parametrlari o‘rganildi.



12-rasm. Suzish basseyni suvini quyosh hovuzi qurilmasi asosidagi qizdirish tizimi

1-quyosh hovuzi, 2-reflektor, 3-issiqlik almashinish qurilmasi (zmeyevik), 4-quvurlarni birlashtirish gaykasi, 5-sirkulyatsiya nasosi, 6-suv filtr, 7- quvur, 8- ortiqcha suvning oqish lotogi, 9- basseyn zinas

Quyosh hovuzli qizdirish tizimining $d\tau$ vaqt oralig‘ida F_k issiqlik almashinish qurilmasi yuzasi bo‘yicha issiqlik balansi tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$dQ = k_c \cdot F_k \cdot \Delta t \quad d\tau = G_c c_c (t_{chiq} - t_{kir}) d\tau = m_x \cdot c_x \cdot dt_x \quad (6)$$


Δt haroratlar o‘zgarishining τ vaqtda o‘rtacha logarifmik qiymatini quyidagicha yozish mumkin.

$$\Delta t = \frac{t_{chiq} - t_{kir}}{\ln \frac{t_{pkz} - t_{kir}}{t_{pkz} - t_{chiq}}} \quad (7)$$


Quyosh hovuzi pastki issiqlik saqlash zonasi eritmasidan, issiqlik almashinish qurilmasiga issiqlik uzatish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$k_c = \frac{G \cdot c}{F} \ln \frac{t_{pkz} - t_{kir}}{t_{pkz} - t_{chiq}} \quad (8)$$

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida 2023 yilning kuz oylari uchun atrof-muhit harorati, quyosh hovuzi pastki qatlam harorati, issiqlik tashuvchining kirish va chiqish haroratlari, quyosh hovuzining PKZda joylashgan issiqlik almashinish qurilmasiga hisoblangan issiqlik uzatish koeffitsiyentining vaqt bo‘yicha o‘rtacha o‘zgarish qiymatlari aniqlandi (13, 14-rasmlar).



13-rasm. Quyosh radiatsiyasi va issiqlik uzatish koefitsientini vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi




14-rasm. Atrof-muhit harorati, quyosh hovuzi pastki qatlam harorati, issiqlik tashuvchining kirish va chiqish haroratining vaqt bo'yicha o'zgarishi

Tadqiqotlar davomida (6) formuladan foydalanib quyosh hovuzidan chiquvchi suv harorati o'zgarishining emperik tenglamasi ishlab chiqildi.

$$k_c \cdot F \cdot \frac{t_{chiq} - t_{kir}}{\ln \frac{t_{pkz} - t_{kir}}{t_{pkz} - t_{chiq}}} = G_s c_s (t_{chiq} - t_{kir}) \quad (9)$$

$$t_{chiq} = t_{pkz} - (t_{pkz} - t_{kir}) e^{\frac{k_c F}{G_s c_s}} \quad (10)$$


Atrof-muhit harorati va radiatsiya qiymatlarining soatlik o'zgarishiga muvofiq quyosh hovuzidan chiquvchi suv haroratining soatlik o'zgarishi aniqlandi (15-rasm).



15-rasm. Basseyndan quyosh hovuziga kiruvchi suvning harorati o'zgarimas 27 °C bo'lganda quyosh hovuzidan chiquvchi suv haroratining soatlik o'zgarishi

Tadqiqotlar jarayonida 2 m³ hajmdagi tajriba quyosh hovuzi hamda uning PKZ da joylashgan issiqlik almashinish qurilmasi yordamida Qarshi shahrining kuz mavsumi sharoitida 1 sutka davomida 5 m³ hajmga ega suzish basseynini talab etilgan haroratdagi issiq suv bilan ta'minlashi mumkinligi hisoblandi.


Suzish basseynlarida energiya resurslari sarfini kamaytirish hamda energetik samaradorlik ko'rsatkichlari oshirish maqsadida kombinatsiyalashgan quyosh hovuzli-issiqlik nasos qurilmali qizdirish tizimining texnologik sxemasi ishlab chiqildi (16-rasm).



16-rasm. Suzish basseynlarining “kombinatsiyalashgan quyosh hovuzli-issiqlik nasosli” qizdirish tizimi (FAP №2504)

1-quyosh hovuzi, 2-reflektor, 3-issiqlik almashinish qurilmasi, 4-quvurlarni birlashtirish gaykasi, 5,10 - sirkulyatsiya nasosi, 6-bug'latkich, 7-drossel, 8-kompressor, 9-kondensator, 11-suv filtr, 12-basseyn va issiqlik nasosini ulovchi quvuri, 13- ortiqcha suvning oqish latogi, 14- basseyn zinasi, 15- quyosh hovuzi va issiqlik nasosini ulovchi quvur.

Ushbu isitish tizimining samaradorligini aniqlash uchun suzish basseynining issiqlik balansini sxemasi (17-rasm) va issiqlik balansini hisoblash metodikasi ishlab chiqildi.



17-rasm. Yopiq binoda joylashgan basseynning issiqlik balansini sxemasi.

Keltirilgan hisob sxemasi basseyn suvi haroratini, basseyn va qizdirish tizimi issiqlik oqimlarini hisoblash imkonini beradi. Ushbu qizdirish sxemasi orqali quyidagi issiqlik balansini tenglamasi ko'rib chiqildi.

$$\rho_s C_s V_b \frac{dT_s}{dt} = \sum (Q_{is.t} - Q_{isr}) \quad (11)$$

Basseynning issiqlik isrofi balansi tenglamasi statsionar rejimda quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Q_{isr} = Q_{bug'} + Q_{nur} + Q_{konv} + Q_{gr} + Q_{z.suv} \quad (12)$$

Basseyn suvi yuzasidan suvning bug‘lanish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{bug'} = \varepsilon \cdot F (P_{ib} - P_b) r = W \cdot r \quad (13)$$

Basseyn birlik yuza maydonidan konvektiv issiqlik yo‘qotilish oqimi Q_{konv} quyidagicha aniqlandi:

$$Q_{konv} = \alpha F (t_{suv} - t_{i.havo}) \quad (14)$$

Bunda konvektiv issiqlik almashinuv koeffitsiyenti quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = 2,8 + 3,0 w_{havo} \quad (15)$$

Yopiq suzish basseynlarida radiatsiyaviy yo‘qotishlar zalning devorlari bilan uzun to‘lqinli radiatsiya almashinuvi orqali issiqlik o‘tkazuvchanlik hisobga olinib quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{nur} = F \cdot q_{nur} = F \varepsilon \sigma ((t_{suv} + 273)^4 - (t_{devor} + 273)^4) \quad (16)$$

Suzish basseynining pastki va yon tomonlaridan yerga konduktiv issiqlik o‘tkazuvchanligida kam miqdorda issiqlik yo‘qotiladi. Ushbu issiqlik yo‘qotilishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q_{gr} = K_b \cdot F_b (t_{suv} - t_{gr}) \quad (17)$$


Umumiy issiqlik uzatish koeffitsiyenti basseyn beton devorining issiqlik o‘tkazuvchanligiga, qalinligiga va basseyn devori uchun ishlatilgan izolyatsiya materialiga bog‘liq bo‘lib quyidagicha hisoblanadi.

$$K_b = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{1}{\alpha_2}} \quad (18)$$

Basseyndagi suv isrofi doim zahira suv ta‘minoti bilan qoplanadi. Zahira suv ta‘minoti oqimi basseyn suvining bug‘lanishi hamda ruhsat etilgan kunlik minimal suv almashtirish asosida hisoblanadi. UNI standartiga ko‘ra almashtiriladigan suvning kunlik miqdori basseyn umumiy suv hajmining taxminan 2,5-5% ini tashkil qiladi. Toza suvning harorati basseyn suvi haroratidan pastligi natijasida issiqlik yo‘qotilishini quyidagi formuladan foydalanib hisoblash mumkin.

$$Q_{z.suv} = \frac{m \cdot R}{86400} 4186 (t_{suv} - t_{z.suv}) \quad (19)$$

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yopiq suzish basseynlarining issiqlik energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji elektr energiyasi iste‘moliga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, 4-5% issiqlik energiyasi basseynning konvektiv issiqlik almashinuvida yo‘qotiladi, 40-45% issiqlik energiyasi basseyn suvining bug‘lanishida, 15-20% issiqlik nurlanish orqali, 10-15% issiqlik energiyasi basseyn devorining issiqlik o‘tkazuvchanligi orqali issiqlik yo‘qolishiga, qolgan 10-15% issiqlik energiyasi basseynga zahira suv qo‘shilishi hisobiga to‘g‘ri keladi (18-rasm).



18-rasm. Yopiq suzish basseynlarining issiqlik yo‘qotishlari taqsimlanishi.

Qizdirish tizimi orqali basseynga beriladigan suvning haroratini aniqlashda, basseyn suvini talab etilgan haroratgacha qizdirishga ketadigan vaqt va basseyn suv sarfi muhim hisoblanadi. Ushbu qizdirish tizimining ish jarayonini bir sutka uchun hisoblab, basseyn suvini talab etilgan haroratgacha ko‘tarib olish uchun zarur bo‘lgan energiya miqdorini aniqlaymiz.

$$Q_{bas.suv} = \frac{m_{bas.suv} \cdot C_{suv} \cdot (t_{b.s.chiq} - t_{b.s.kir})}{\tau} \quad (20)$$

